

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA SHAXSIY QADRIYATLI YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

p.f.d. DSc

O'rinov U.A

Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistranti

Sayfullayeva G. A.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada shaxsiy qadriyatli yondashuv ahamiyati va Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar savodxonligini oshirishda shaxsiy qadriyatli yondashuvni rivojlantirish metodikasi haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, qadriyatli yondashuv, ta'lim, tarbiya, jarayon, metodika, savodxonlik.*

Аннотация: *В данной статье описывается значение личностно-ценностного подхода и методика разработки личностно-ценностного подхода в повышении грамотности учащихся начальных классов.*

Ключевые слова: *ценность, ценностный подход, образование, воспитание, процесс, методика, грамотность.*

Abstract: *This article describes the importance of a personal value approach and the methodology of developing a personal value approach in improving the literacy of students in primary education.*

Key words: *value, value approach, education, upbringing, process, methodology, literacy.*

Bugungi dolzarb va rivojlanib borayotgan dunyoda yashash, shaxsiy- milliy madaniy o'sish va har sohada oldingi qatorlarda bo'lish uchun avvalo, yoshlarga bolalik davridan milliy -madaniy qadriyatlarni ta'lim tarbiya jarayoni bilan uzviy ravishda o'g'atib borish, ularni ilmiy salohiyatli, milliy va shaxsiy qadriyatlari shakllangan mustaqil fikrli shaxslar bo'lib yetishishiga diqqatli bo'lishimiz lozim.


Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev takidlaganlaridek "Yoshlarimizga biz sharoit yaratmasak boshqalar sharoit yaratadi, biz ta'lim bermasak, boshqalar ta'lim beradi"[1]

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy – axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan falsafiy – sotsiologik va akseologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, obida- yodgorlik, go'zallik axloqiy xislat hamda fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar hisoblanadi.

Qadriyatlar qachonki, insonda aksiologik ong, aksiologik munosabat va ustanovkalar shakllantirilgan sharoitdagina, uning faoliyati va xulq-atvorini mo'ljalga olishga imkon beradi. Aksiologik ong - axloqiy-ma'naviy tarzda o'z hayotiy faoliyati

sohasi subyektlarini aniqlashga imkon beruvchi obyektiv borliqni aks ettirish shakli; ma'naviy qadriyatlar dunyosi sifatida borliqni aks ettirish asosida insonda dunyoni va o'zining shaxsiy dunyosini anglashida faol ishtirok etuvchi psixik jarayonlar birligi. Aksiologik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, pedagogik voqelik va hayotni qadrlash tuyg'usi asosida o'ziga xos tarzda aks etadi. Unga asoslangan munosabat, yondashuv, amaliyot va faoliyat ham boshqalardan farq qiladi. Aksiologik yo'nalganlik yaxlitlikda shaxsning faoliyat va xulq-atvordagi aniq qadriyatlarga yo'nalganligini aks ettiradi, har bir aniq vaziyatlarda esa shaxs qadriyatli ong va qadriyatli munosabatlarga rahbarlik qiladi.[2]

Bunda narsa, voqea-hodisalar, kishilar va ularning faoliyatiga qadr hamda qadrlanish darajasi nuqtayi nazaridan qaraladi. Mazkur qarashda foydalilik, qiymat va ularni ifodalaydigan iqtisodiy baho emas, balki qadr ahamiyati asosiy o'rin tutadi. Bunda qadr va baho bir-biriga mos kelmaydigan, narsa yoki obyektning qadri uning iqtisodiy qiymatidan bir necha marta salmoqliroq bo'lishi ham mumkin bo'lgan hollar ko'p uchraydi. Masalaning bu jihatini o'rganish axloqshunoslik, estetika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslikning dalillari va ma'naviyatning ijtimoiy qirralariga tayanadi. Bunda, ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning yechimlarini ifodalaydigan qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, talab va ehtiyojlarining real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. [2]



1-rasm. Qadriyatni shaklantiruvchi xususiyatlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilimini va savodxonligini oshirishda dastlab ularda shaxsiy va milliy qadriyatlarni shakllantirish lozim. Bizningcha, buni amalga oshirishda boshlang'ich ta'limda shaxsiy qadriyatli yondashuvni rivojlantirish metodikalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy qadriyatlar - bular ularni hayot tarziga moslashtirish, shaxsiyatini aniqlash, maqsadlarini qondirish, ehtiyojlarini qondirish maqsadida har bir shaxs tomonidan belgilangan ko'rsatmalar va ijobiy harakatlar jamlanmasi. Shaxsiy qadriyatlar har bir insonning ichki ehtiyojlarini, ularning xohish-istaklarini va muhim deb bilgan narsalarini aks ettiradi. Ular shaxslarda mavjud bo'lgan va ular to'g'ri deb hisoblaydigan xulq-atvor parametrlarining bir qismidir. Ushbu shaxsiy qadriyatlar

egiluvchan va vaqt o'tishi bilan odamlar o'sib borishi, o'z shaxsiyatini aniqlashi, turli vaziyatlarni boshdan kechirishi va qiyinchiliklarni yengishi bilan farq qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari har qanday faoliyatining ta'lim natijalari quyidagi darajalar bo'yicha taqsimlanadi:


- birinchi daraja yashash, ijtimoiy bilimlarni egallash, ijtimoiy voqelik va kundalik hayot haqida birlamchi tushuncha;

- ikkinchi daraja natijalar - ijtimoiy ahamiyatli (ijobiy) rivojlanish emotsional-baholovchi komponentni diagnostika qilishdagi qiyinchiliklar: o'quvchining ushbu obyektlar va hodisalarga bo'lgan munosabati, jamiyatning qadriyatlarini hisoblangan atrofdagi olamga, o'z Vataniga, mehnatga, tabiatga, madaniyatga, o'ziga, boshqa odamlarga, sog'liqqa va hokazolarga, umuman olganda ijtimoiy voqelikga qadriyatli munosabati;

- uchinchi darajasi - o'quvchi yashaydigan jamiyat manfaatiga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishda tajriba to'plashi, o'quvchining mustaqil ijtimoiy harakatlar tajribasini to'plashi;

- to'rtinchi daraja - o'quvchining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turlarini o'zlashtirishi, bu «u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan harakat u allaqachon o'zlashtirgan oddiyroq faoliyatning ajralmas qismi sifatida o'quvchi tomonidan amalga oshirilganda sodir bo'ladi, motiv va mustaqil faoliyatga aylanadi.» Qadriyatli yondashuvning motivatsion-xulq-atvor va kognitiv tarkibiy qismlari namoyon bo'lishining diagnostikasi qadriyatli munosabati tarkibiy qismlarining namoyon bo'lishini o'z vaqtida va muntazam ravishda diagnostika qilish o'qituvchiga bajarilgan ishlarning sifatini baholash, keyingi ishlarni rejalashtirish, ta'lim jarayoni ishtirokchilarining tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirishga imkon beradi. [3]

Boshlang'ich ta'limda ta'limda o'quvchilar savodxonligini oshirishda shaxsiy qadriyatli yondashuvni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqish, ta'lim jarayonida bularni qo'llash boshlang'ich ta'limda faoliyat olib boradigan pedagog xodimlarning bilimi va mahoratiga bog'liq . Pedagog har bir bolaning xarakter xususiyatlarini, rivojlanishini inobatga olgan holda va bolalarda shaxsiy qadriyatli yondashuvni rivojlantirish maqsadlaridan kelib chiqib shunga mos turli metodlardan foydalanishi mumkin.



2-rasm. shaxsiy qadriyatli yondashuvni rivojlantirish maqsadlari

Xulosa qilib aytganda, tizimli, inson ma'naviy- madaniy rivojiga yo'naltirilgan yondashuvlar va qadriyatga yo'naltirilgan faoliyatning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda "qadriyat" tushunchasi o'quvchi-talabalarga ijtimoiy ahamiyatini to'liq ochib berish lozim. O'quvchilarda shaxsiy mustaqil fikrni shakllantirish, xalqiga va millatiga, ona vataniga sadoqatli, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib yetishishida ta'lim- tarbiya jarahonida shaxsiy qadriyatli yondashuvning qo'llanilishi ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar.
2. Mardonov Sh., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuxamedova D. Pedagogik aksiologiya. (o'quv qo'llanma) -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 184 bet.
3. Dilfuza Ruzikulovna Shabbazova BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA QADRIYATLI YONDASHUV VA SAVODXONLIK MUNOSABATLARI DARAJASINI TASHXIS QILISH METODIKASI // Academic research in educational sciences. 2023. №TMA Conference.
4. Савинова Л.Ю. (2019) Трудности диагностики эмоциональнооценочного компонента ценностных отношений младших школьников. Комплексные исследования детства, т. 1, № 1, с. 57–64. DOI: 10.33910/2687-0233- 2019-1-1- 57-64.
5. Ядов В.А. Социальная психология личности // Социология и современность. 2003. Т. 1. С. 75-90, 106-120.
6. Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
7. Kaldibekova A., Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.